Matn tarjimasida psixolingvistik mexanizmlar va neyropsixologik yondashuvlar

Ikromova Nigina Oybekovna
Samarqand Davlat Chet tillar Instituti
doktorant (PhD) tadqiqotchi
email: muslimakarim56@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy tarjima jarayonining psixolingvistik xususiyatlari hamda tarjimon aqliy faoliyatiga oid zamonaviy neyropsixologik va neyrolingvistik tadqiqotlar natijalari ilmiy tahlil qilingan. Ishda til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik, tarjimon tomonidan axborotning qabul qilinishi hamda kognitiv strategiyalarning tanlanish bosqichlari nazariy va analitik jihatdan o‘rganiladi. Shuningdek, xalqaro neyrolingvistik tajribalardagi usullaridan olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, badiiy va madaniy elementlarni muqobil tarjima qilishda miya faoliyatining neyronal mexanizmlari va kognitiv yuklama darajasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Psixolingvistik jarayonlar, badiiy tarjima, tarjima strategiyasi, kognitiv menedjment.

ANNOTATION: This article presents a scientific analysis of the psycholinguistic characteristics of the literary translation process, alongside the findings of modern neuropsychological and neurolinguistic research regarding the translator’s cognitive activity. The paper theoretically and analytically examines the interplay between language and thought, the stages of information perception by the translator, and the selection of cognitive strategies. Furthermore, data obtained through international neurolinguistic experimental methods are synthesized, analyzing the neuronal mechanisms of brain activity and the degree of cognitive load involved in achieving equivalent translations of literary and cultural elements.

KEYWORDS: Psycholinguistic processes, literary translation, translation strategy, cognitive management.

АННОТАЦИЯ В данной статье научно проанализированы психолингвистические особенности процесса художественного перевода, а также результаты современных нейропсихологических и нейролингвистических исследований мыслительной деятельности переводчика. В работе с теоретической и аналитической точек зрения рассматриваются взаимосвязь языка и мышления, этапы восприятия информации переводчиком и выбор когнитивных стратегий. Кроме того, обобщены данные, полученные с помощью методов международных нейролингвистических экспериментов, а также проанализированы нейрональные механизмы мозговой деятельности и уровень когнитивной нагрузки при эквивалентном переводе художественных и культурных элементов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Психолингвистические процессы, художественный перевод, стратегия перевода, когнитивный менеджмент.

Kirish

Tarjima jarayoni shunchaki bir tildagi so‘zlarni boshqa bir til birliklariga almashtirish emas, balki inson miyasida kechadigan murakkab kognitiv va psixolingvistik mexanizmlarga tayanuvchi aqliy faoliyatdir. Ayniqsa, badiiy matnlarni tarjima qilishda til egalarining madaniyati, ruhiyati va emotsional holatini yetkazib berish tarjimondan yuqori kognitiv resursni talab etadi. Rubert I. va Kapitonova M.ning ta’kidlashicha: “Interferensiyaning psixolingvistik mohiyatini anglash bu shunchaki mantiqiy natijani kuzatish emas, balki til ko‘nikmalarining inson miyasida amalda namoyon bo‘lishi hamda uni

boshqarib turuvchi ruhiy va kognitiv mexanizmlarning yaqqol dalilidir” [Rubert I., Kapitonova M., 2017].

Zamonaviy neyrolingvistika va kognitiv tilshunoslik sohasida to‘plangan nazariy va tajribaviy ma’lumotlar tarjimonning aqliy faoliyatini chuqurroq tushunish imkonini bermoqda. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRT) hamda voqea bilan bog‘liq potensiallar (ERP) bo‘yicha neyrolingvistik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badiiy va madaniy tafovutga ega matnlar ustida ishlashda tarjimon miyasining diqqat, xotira va kognitiv yuklamani boshqaruvchi zonalari faollashadi [SR Research, 2024].

Tahlil va muhokama

Neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqotlar natijalarini qiyosiy-analitik o‘rganish shundan dalolat beradiki, tarjimonlar aqliy bosim va lisoniy zo‘riqishni kamaytirish uchun muayyan kognitiv strategiyalarga tayanadilar. Bunga murakkab sintaktik qurilmalarni soddalashtirish, kontekstual va mazmuniy tayanch nuqtalarini aniqlash hamda badiiy ekvivalent izlash jarayonlari kiradi.

Neyropsixologik tadqiqotlar va ekspertlar kuzatuvida ta’kidlanganidek: “Tajribali tarjimon alohida so‘zlar bilan emas, balki kommunikativ vaziyatga va ruhiy bo‘yoqqa ega matn bilan ishlaydi va kelayotgan axborotni kognitiv talqin etadi” [Zinovyeva, Leonova, 2019].

Mavjud fMRT va ERP ma’lumotlarini badiiy tarjima nuqtai nazaridan umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tarjimon milliy-madaniy realiyalar, metafora va majozlarni muqobil o‘girish jarayonida miyaning uzoq muddatli xotira va obrazli tafakkur uchun mas’ul sohalari bir vaqtning o‘zida faol ishlaydi. Bu esa badiiy tarjimaning oddiy texnik tarjimadan farqli ravishda miyada ancha yuqori kognitiv resurs va neyronal bog‘liqlikni talab etishidan dalolat beradi.

Xulosa

Badiiy tarjima va psixolingvistika chorrahasidagi neyrolingvistik tadqiqotlar tahlili shuni namoyon etdiki, bo‘lajak tarjimonlarni tayyorlashda faqat lingvistik bilimlar yetarli emas. Ularda aqliy yuklamani samarali boshqarish, ya’ni kognitiv menedjment, hamda moslashuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Kelgusidagi izlanishlarimizda badiiy matnlarda uchraydigan milliy-madaniy va metaforik birliklarning tarjimasida kechadigan psixolingvistik jarayonlarni nazariy-analitik modellashtirish va takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rubert I.B., Kapitonova M.A. On the problem of Interpreting-Psycholinguistics interaction: interlinguistic interference // Journal of SFU. Humanities. 2017. No. 3. p. 402.

2. Зиновьева И.Ю., Леонова А.С. Когнитивно-визуальные технологии развития информационной компетенции будущего переводчика // Ярославский педагогический вестник. – 2019. – № 5. – С. 67-73.

3. Kumpulainen M. Learning translation: an empirical study into the acquisition of interlingual text production skills. [dissertation]. Itä-Suomen yliopisto; 2016. p. 44.

4. SR Research Cognitive Science Group. Word Recognition with fMRI and Eye Tracking: Methodological Advances in Cognitive Neuroscience // SR Research Case Studies. 2024.

5. Van Heuven W. J. B., Dijkstra T. Language comprehension in the bilingual brain: fMRI and ERP support for psycholinguistic models // Brain research reviews. – 2010. – Vol. 64. – No. 1. – P. 104-122.